

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.Abdullayeva</b>	
XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi .....	324
<b>F.Temirov</b>	
Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....	328
<b>I.Naimov</b>	
Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari.....	333
<b>R.Rahimov</b>	
Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar .....	337
<b>D.A.Choriyeva</b>	
Madaniyat sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar.....	342
<b>O.V.Mahmudov</b>	
O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya .....	353
<b>A.A.Hakimov, B.A.Usmanov</b>	
Amir Abdulloning Xorazm yurishi .....	360
<b>N.X.Choriev</b>	
Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi .....	365

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>I.Yakubov</b>	
"Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda .....	368
<b>P.Bakirov</b>	
Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani .....	373
<b>I.Mannopov</b>	
Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi .....	379
<b>Q.Yo'lchiyev</b>	
Anvar Obidjon lirikasida semiotik xususiyatlar .....	383
<b>J.Eshonqulov</b>	
Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati .....	388
<b>T.Matyobova</b>	
Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati.....	394
<b>M.Qurbonalieva</b>	
Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkirat-ush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili .....	399
<b>I.Eshonqulov</b>	
Tazkiranavislar nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rnini anglash .....	405
<b>H.Ne'matova</b>	
Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi .....	413
<b>X.A.Xaitov</b>	
O'zbek adabiyotida lingvistika asosida kulgi uyg'otish masalasi .....	417
<b>Samadi Nooria</b>	
Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari .....	421
<b>A.G.Sabirdinov</b>	
Shuhrat she'rlariga bir nazar .....	427
<b>S.Muminov, Z.Kamoliddinova</b>	
Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir.....	433

#### TILSHUNOSLIK

<b>Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva</b>	
Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalanishi .....	439
<b>Sh.A.Ganiyeva</b>	
Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari .....	443
<b>D.Yuldasheva, S.Nishonova</b>	
Maqollarda "bola" kontseptining ifodalanishi.....	447
<b>M.Saminjonov</b>	
Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi.....	450
<b>O.Latipov</b>	
Rus, o'zbek, tojik va ingliz <i>tillarida "dog/it/sag"</i> zoonim so'zining konseptual talqini .....	454

## SHUHRAT SHE'RLARIGA BIR NAZAR

## ВЗГЛЯД НА ПОЭЗИЮ ШУХРАТА

## GLANCE AT THE POETRY OF SHUHRAT

Shuhrat (G'ulom Alimov) tavalludining 105 yilligiga

Sabirdinov Akbar Gofurovich<sup>1</sup><sup>1</sup>Sabirdinov Akbar Gofurovich

– Filologiya fanlari doktori, professor.

**Annotatsiya**

Maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Shuhratning she'riyatimiz taraqqiyotiga qo'shgan hissasi qator asrlari tahlili misolida yoritiladi. Shoiming tasviriy ifoda va vositalardan samarali foydalnib lirik kartinalar yaratish mahorati ko'rsatib beriladi. Falsafiy ifoda, xalqona ohangdorlik, izchil tasviriylik, nozik kechinmalarga to'yinganlik Shuhrat she'riyatining ta'sirchan va jozibadorligini ta'minlagan muhim jihatlardir.

**Аннотация**

В статье на примере анализа нескольких веков объясняется вклад народного писателя Узбекистана Шухрата в развитие нашей поэзии. Будет показано умение поэта создавать лирические картины с эффективным использованием изобразительных средств и средств выражения. Философская экспрессия, народная мелодия, последовательная образность, насыщенность тонкими переживаниями – важные аспекты, обеспечивающие впечатляющую и притягательную силу поэзии Шухрата.

**Abstract**

In the article, the contribution of Shuhrat, the national writer of Uzbekistan, to the development of our poetry is explained as an example of the analysis of several centuries. The ability of the poet to create lyrical pictures with the effective use of pictorial expressions and tools will be shown. Philosophical expression, popular melody, consistent imagery, saturation with delicate experiences are important aspects that ensure the impressive and attractiveness of Shuhrat's poetry.

**Kalit so'zlar:** lirika, tasviriy ifoda, mahorat, davr ruhiyati, uslub, tasviriylik, lirik kartina, kechinma, taassurot.

**Ключевые слова:** лиризм, образное выражение, мастерство, дух эпохи, стиль, образность, лирическая картина, переживание, впечатление.

**Key words:** lyricism, figurative expression, skill, spirit of the era, style, imagery, lyrical picture, experience, impression.

XX asr o'zbek she'riyatini Shuhrat (G'ulom Alimov) ijodisiz tasavvur etish mumkin emas. U adabiyotga 1935-yilda shoir sifatida kirib keldi[1,109]. Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, uning she'rdan she'rga mahorati oshib borganligini ko'ramiz. Asarni mazmun va shakl jihatdan mukammallashtirish borasida muttasil izlanishlar olib borgan Shuhrat bir qarashda oddiy voqelikdan ham go'zal falsafiy fikr, xulosa chiqara oladi. Voqeabandlik shoir she'riyati uchun xos jihat bo'lib, turli tasviriy ifoda va vositalar bilan ta'sirchanlikni yuzaga chiqaradi.

Adabiyotning o'lmas mavzularidan bo'lgan muhabbat Shuhrat she'riyatidan "o'q tomir" bo'lib o'tgan. Shoir fikricha muhabbatgina mangu, u hech qachon zavol bilmaydi. "Sevgi qarimas" (1946) she'riining asosida ham muhabbatning doimo navqiron va abadiyligi tarannumi yetakchilik qiladi:

Majnutol soyasi ilk bahor,  
Sevgimizga belanchak bo'ldi.  
Men sevgimni etganda izhor  
Barglar chapak chaldi, oy kuldi.  
Yillar o'tdi... Bizning sevgimiz  
Hamon yashar, hamon navqiron.  
Ammo o'sha guvoh majnuntol  
Qurib bitmish benomu nishon[2,28].

Shoir o'xshatish, qiyos, jonlantirish, istiora, sifatlash kabi tasviriy, parallelizm, takror, izosillabizm kabi ritmik, turli band, qofiya tizimlari, vazn hamda evfonik vositalardan samarali foydalanib satrlar ta'sirchanligini yuzaga chiqaradi.

Shuhrat she'riyati xalqona ifoda va samimiy kechinmalarga to'yingani, xushohangligi bilan ajralib turadi. Har bir so'zning she'riy kontekstga "uzukka qo'yilgan qimmatli tosh yanglig" (Oybek iborasi – S.A.) mos tushgani, shaydo ko'ngil tuyg'ulari ifodasidagi tabiiylik ushbu misralarni o'qigan kitobxon tilidan qo'shiqqa aylanib jarang beradi. Shu ma'noda quyidagi satrlarni xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan an'analarning davomi deyish mumkin:

Oylar o'tdi bedor, beshafqat,  
Erkam, meni unutmadingmi?  
Xayolimda hamon sen faqat,  
Erkam, meni unutmadingmi?  
Ko'zim yumsam tushlarimdasan,  
Yozu bahor, qishlarimdasan.  
O'qib olgan "besh"larimdasan,  
Erkam, meni unutmadingmi?

(“Erkam, meni unutmadingmi?”)

She'rning keyingi satrlarida lirik "men" – oshiq tuyg'ulari tasviridan yor qiyofasining o'ziga xos ifodasiga o'tiladi. Bu tabiatning betakror oniy holatlari chizgilari bilan uyg'unlashib ketadi:

Bahor kelsa gulda ko'raman,  
Sen xush ko'rgan yo'ldan yuraman.  
Ba'zan qirdan, cho'ldan yuraman  
Erkam, meni unutmadingmi?  
Ko'kda yongan sening ko'zginang,  
Menga madad doim so'zginang,  
Qachon ko'rgum sening o'zginang,  
Erkam, meni unutmadingmi?

Murakkab tashbehlardan, jimjimador iboralardan holi, beg'ubor kechinma va nozik tuyg'ularning ifodasi bo'lgan she'rning so'nggi bandlari muhabbatni avaylash hamda qadrlashga chaqiriq bilan yakunlanadi:

Turna o'tsa yo'lga boqaman,  
G'ozlar uchsa ko'lga boqaman.  
Dilim yonsa gulga boqaman  
Erkam, meni unutmadingmi?  
Gulim qo'lda so'lmasidan kel,  
Do'stu dushman kulmasidan kel,  
Ishqing dilda so'nmasidan kel,  
Erkam, meni unutmadingmi?

She'r ana shu tariqa vafo va sadoqatni tarannum etuvchi "muhabbat simfoniyasi" bo'lib jaranglaydi. Davrlar osha avloddan avlodga o'tib qalblar mulkiga aylangan o'lmas ijod namunasi bo'lib yuz ko'rsatadi.

Lirik kartinalar yaratishning ustasi bo'lgan Shuhrat "Ko'klam" (1970) she'rida izchil tasvirlar va tafsillar shodasi vositasida ilk bahor manzarasini chizadi. Tabiatning oniy holatlarini aks ettirish orqali esa yaxlit ko'klam suratini yaratadi.

She'rning  
Ilhomga to'libdi yana bir tuproq,  
Chechaklar, maysalar uning ijodi.  
Sevgisin ko'zidan sochadi buloq,  
Bormi deb sevgining tilga hojati!  
Sevinchi ichiga sig'masdan g'uncha  
Labini tutolmay xandon kulibdi.  
Ayvonga qaldirg'och, tolga musicha  
Jo'jasi g'amda xashak ilibdi.

misralarida ilk bahor kunlarida tabiatdagi jonlanish, uyg'onish jarayoni batafsil yoritila boradi. So'ng tasvirga "jahongir Amir Temurning boshiga soya tashlagan o'limtik chinorning ham yaproq yoza boshlagani, saylni boshlagan qumursqa, o'zidan katta qumaloqni yumalatayotgan qo'ng'iz, qorli yerga ketishga kechikkan nolasi baland qarg'a, bulbullar bilan yoz bo'yi yurmoqni

## ADABIYOTSHUNOSLIK

orzu qilgan karqunoq, maysalar ostida jonini avaylab yotgan binafshani yulib ketgan berahm bolalar, qirdagi do'stiga bug'otdan qo'l silkitayotgan lolaqizg'aldoq, u bog'dan bu boqqa havotir bilan yelib, o'tgan yilgi yong'og'ini chaqayotgan zarg'aldoq, oq baqbaqasini likillatib kovakdan chiqqan cho'tir qurbaqa, yorini boqqa yetaklagan, lekin bir dasta gulga ham cho'ntagida chaqasi yo'q student yigit, qish bo'yi dimiqqan sochlarini orqaga qirq kokil qilgan qizlar, bulutga qahrini sochib ustidan shiddatli chaqmoq yeldirgan osmon" tasvirlari kirib keladi.

She'rning so'nggi "Taqqirin yer bilan chandigan dehqon Ona-Yer boshida mag'rur boqadi. Ko'nglidan o'tadi olov saraton, Serfayz kuz yo'lidan karvon oqadi!" satrlarida kuz tashvishi bilan band dehqon obrazi namoyon bo'ladi. Shoir tabiatdagi, qush va hashorotlardagi, nabotot va hayvonot olamidagi, insonlardagi o'ziga xos uyg'onishlarni birma-bir tasvirlash orqali ko'klamning jonli kartinasini yaratishga muvaffaq bo'ladi.

Polyak adabiyotining taniqli namoyandasi Yan Parandovskiy "So'z kimyosi" kitobida "Yozuvchi tarbiyasidagi asosiy vazifa – so'z haqidagi ilmni chuqur egallash hamda ijod qilayotgan tilni bilish va anglashdan iboratdir" [5.219] deya yozadi. Shuhrat ham tilimizning lug'at qatlamini yaxshi biladi. Har bir so'zning she'riy kontekstdagi ma'no tovushlarini chuqur anglagan holda satrlarga olib kiradi. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridagi o'ynoqi ohangdorlikni, nozik qochirilmalarni o'ziga jamlagan, sharq mumtoz adabiyotidagi murabba'ning qofiya tizimi asosidagi quyidagi band tizimlarida shoir oshiqning nozik kechinmalari hamda yor qiyofasini betakror chizgilarda aks ettirishga muvaffaq bo'ladi:

Gulzoridan o'tdi nogoh  
Ko'zi o'ldirdi – o'ldirdi.  
Bir so'z qildi kulib nogoh,  
So'zi o'ldirdi – o'ldirdi.  
Aks-sadosi yonog'imda,  
Shirin so'zi qulog'imda,  
Atir bo'yi dimog'imda,  
O'zi o'ldirdi – o'ldirdi.

(“Nozli jonon”)

Shuhrat ko'z yoshlar rangini, ular orqali insonlar holatini ko'ra olgan ijodkor. Nahotki, ko'z yoshning ham rangi bo'lsa, degan tabiiy savolga shoir shunday javob beradi:

Qadahdan to'kilgan ko'z yoshi qora,  
Alamdan to'kilgan zardob rangida.  
Yurakka botdimi, balki, tobora  
Bardoshing kuydirar mudhish zangida!  
Shodlik ham yosh to'kar nurdek musaffo,  
Sevgidan oqqani otash tUSDadir,  
Bariga malhamdir sof ko'ngil, vafo,  
Kalidi shirin til, yoniq ko'zdadir!

(“Qayg'udan to'kilgan...”)

Ana shu tariqa qayg'udan, alamdan, sevgidan, to'kilgan ko'z yoshlarning o'ziga xos rangi bo'lishini uqtirgan shoir baxt haqida shunday falsafiy xulosaga keladi:

Baxt rangini bilsaydi odam,  
Uni darrov tanib olardi,  
YO sharpasin sezsa o'sha dam,  
Orqasidan otin solardi.  
Yaxshiyamki, rangi yo'q aniq,  
Turli rangda kelishi mumkin.  
Uni faqat qalbi pok, yoniq  
Sodiq kishi ko'rishi mumkin!

(“Baxtning rangi”)

Shoir lirik qahramoniga ko'kdagi yulduzlar jaranglab so'zlaydi, toshlarning joni, devorning ko'zi bordek, o'tkinchining oddiy so'zi qalbiga quvonchli lavha bitgandek tuyuladi. Shunday paytda unga "Dunyoda alam yo'q, achchiq-chuchuk yo'q, Dunyoda o'lim yo'q, hasad yo'q go'yo. Murodga yetmaydi yovuz otgan o'q, Go'yoki nur bilan yo'g'rilgan dunyo" bo'lib ko'rinadi. Ammo bu faqat orzu

ekani ayon bo'ladi. Qayerdandir "yo'q" degan ovoz keladi. Bu ovoz dunyo kun va kecha, oq va qora, shirin va achchiq almashinuvidan iboratligi, dunyoning muqaddas siri shunda ekanligini ta'kidlaydi.

Butun ijodi davomida adolat, mehr-muhabbat, odamiylik, oqibat, vafo kabi insoniy tushuncha va fazilatlarini madh etgan Shuhrat turli qiyofada tovlanuvchi soxtakorlikni qoralaydi. Tabiatdagi har bir narsa va hodisani, shuningdek, odamni ham o'z holicha ko'rishni xohlaydi.

She'rning

Daryo bo'lsang toshni toshga urib oq,  
 Quyosh bo'lsang sen osmonga kulib boq,  
 Bulut bo'lsang rahmating quy, chaqmoq chaq,  
 Chaman bo'lsang gullaring soch xushchaqchaq.  
 Chashma bo'lsang tinim bilmay qaynab tur,  
 Bulbul bo'lsang sahar turib chaqchaq ur.  
 Ohu bo'lsang ohu ko'zing yashirma,  
 Arslon bo'lsang bosgan izing yashirma.  
 Turna bo'lsang yuksaklarda ber sado,  
 Burgut bo'lsang qoyaga qil jon fido!  
 Odammisan ezgu ishdan qo'l uzma,  
 Nokaslarga shafqat qilma, qo'l cho'zma!

(“Daryo bo'lsang...”)

satrlarida insonning yashashdan maqsadi ezgulik ekani alohida uqdiriladi. She'r “Yaxshilarning yelkasida bu olam, Yaxshilikni niyat qilsin har odam!” degan so'zlar bilan yakunlanadi.

Tasviriylikning o'ziga xos namunasini shoirning “Tong mazarasi” (1977) she'rida ko'rishimiz mumkin. Unda erta tong mahalida borliqda ro'y beradigan o'zgarish va holatlar izchil tasvirlanadi. “Milt-milt etgan yulduzlarning tun izini quvib ketishi”, “shudring bilan yuz yuvgan quyoshning ufqni ko'zlashi”, “boboxo'rozning tongni olqishlab so'nggi marta qichqirishi”, g'imirlab qolgan qumursqalar, uyasidan chiqayotgan bol ari, o'tloq qir sari ketgan sigir izidan ma'rab qolgan buzoq, bosh ko'targan quyosh, unga ta'zim qilayotgan kungaboqar, ariqdan oqib kelayotgan olma, tungi quyilgan sutning qaymog'ini suzayotgan kampir, qo'yniga issiq non solib ko'chadan kelgan chol holatlarining birma-bir tasviri orqali ko'z oldimizda sharqona tong manzarasi namoyon bo'ladi.

She'ring so'ngi satrlari

Tong ham oppoq,  
 Paxtazor oppoq,  
 Oppoq nurga chayilgan o'lkam,  
 Shu o'lkaning jamoliga boq,  
 Tong chog'ida ayniqsa ko'rkam!

tarzidagi “oppoq”, “tong”, “o'lka” so'zlari takroriga asoslangan tasvir bilan beg'uborlik, musaffolik barq urib turgan o'lkamiz kartinasini namoyon bo'ladi.

Sharq mumtoz she'riyatidagi “tajohuli orif” san'atini bir qadar yodga soluvchi “Bilolmadim” (1959) she'ri shoirning Gruziyaga qilgan safari taassurotlari asosida yozilgan. She'r boshdan oyoq so'roqlar asosidagi satrlar bilan bezangan bo'lib, shu orqali shoir Gurjistonning betakror, go'zal manzaralarini so'z akvareli vositasida mahorat bilan aks ettiradi. Satrlarning o'ynoqi va ravonligi, sodda va yorqin ifodalarga boyligi Shuhratning o'zbek xalq og'zaki ijodi an'alaridan ta'sirlanganligini ko'rsatadi.

Go'zal Kavkaz, o, Gurjiston, aytaqol,  
 Men kelganda bahormidi, yozmidi?  
 Ko'llaringda kuni bo'yi bemalol  
 Suzib yurgan o'rdakmidi, g'ozmidi?  
 Yo'llaringda qator-qator ko'ringan  
 Surx qomatlar terakmidi, tolmidi?  
 Cho'qqilarda oppoq bo'lib suringan,  
 Bilolmadim, bulutmidi, qormidi?

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Misralarida Kavkaz tabiatining betakror manzaralari aks etsa, keyingi satrlarda lirik “men” nigohi nabotot, hayvonot va gruzin qizlariga tushadi. Yurt ozodligi uchun kurashgan qahramonlar siyomosini shoir yodiga oladi.

She'ning  
 Tog'dan toqqa yengil-yelpi sakragan  
 Tog' erkasi ohumidi, shermidi?  
 Choy bargida sal yel bilan titragan  
 Shudringmidi, mardlar to'kkan termidi!  
 Qizlarningning ol labiga nur bergan  
 Adash tushgan nuqtamidi, xolmidi?  
 Lablarida qatra-qatra erigan,  
 Bilolmadim, shakarmidi, bolmidi?  
 bandlaridagi tasvir ishq mavzusining betakror talqini bilan yakun topadi.  
 So'nggi satrlardagi  
 Anormidi, olmamidi to'shida  
 Ko'z-ko'z qilib olib yurgan narsasi?  
 O'tgan hafta, yangi oyning boshida  
 Sovg'amidi menga bergan narsasi?  
 Bilolmadim. Bilolmasdan dog'daman  
 Bilolmasdan qaytib ketdim yurtimga.  
 Izohlashga va'da bersang qaytaman,  
 Qor yog'sa ham, do'l yog'sa ham ortimga!

tarzda so'z takrorlari vositasidagi ifodalarda ta'sirchan fikr yuzaga keladi. Sharq mumtoz she'riyatidagi tahrir san'atini yodga soluvchi so'z takrorlaridan foydalanib shoir so'z urg'usiga, ohangdorligiga, ta'sirchanligiga va ifoda aniqligiga erishadi. She'rdagi fikr tadriji va ritmik izchillikni yuzaga chiqaradi:

O'nging gul, so'ling gul, gir atrofing gul,  
 Ko'kdan gul yoqqanmi bahordan boshlab?  
 Ey ko'ngil, mana gul, o'yna, yayra, kul.  
 Armoning qolmasin kul xandon tashlab!

(“Gullar vodiysi”)

Yoki,  
 O, inson bilagi, inson bilagi,  
 Naqadar ulug'vor kuch-qudrating bor.  
 O, inson idroki, inson yuragi,  
 Ming yillar yashagan shon-shuhrating bor.

(“Tamara qal'asi”)

Yoki,  
 Sokin Dunay, erkin Dunay,  
 Sohilingga qushdek qo'nay.  
 Sohilingda bir kecha tunay,  
 Desam nima derkan Dunay!

(“Daryoga iltimos”)

tarzdagi tasvirlarda gullar yurti Bolgariyaning go'zal manzaralaridan olgan shoir taassurotlari ifodalanadi. Dastlabki banddagi “gul” so'zi takrori poyonsiz gullar og'ushidagi borliq tasviri uchun asqotgan bo'lsa, keyingi banddagi “inson” so'zi takrori orqali gruzin malikasi Tamara topshirig'i bilan barpo etilgan, qoyatosh bag'rini o'yib qurilgan muazzam qal'adan olgan shoirning hayrat tuyg'ulari aksini topgandir. Uchinchi tahlilga tortilgan takror orqali daryoning sokin, poyonsiz, orombaxsh holati qabartma tarzda ifodasini topgan.

Shuhrat she'rlarini kuzatar ekanmiz, lirik qahramon davr to'fonlarida, turmushning qaynoq qozonida toblanib, ma'nau va fikran yuksalib ishq gulxanida yongan yigitchadan hayotning past-u balandini teran anglagan qat'iyatli donishmand mo'ysafid darajasiga o'sib yetganini ko'ramiz. Bu mo'ysafid adolat uchun kurashuvchi, elning porloq istiqboli uchun jon tikkan, munofiqlik, sotqinlik, mehirsizlik, ikkiyuzlamalik kabi illatlarga qarshi ayovsiz kurashuvchi shaxs.

Shoirlarni payg‘ambarlarga mengzaydilar. Bu bejiz emas. Shuhratning “She‘rim haqida o‘ylar” (1976) she‘ridagi ushbu satrlar uning kelajak avlodlarga bashorati va vasiyati bo‘lib jaranglaydi:

Men o‘tib ketaman, sen keyin qolib  
 Haqimda rost so‘zni aytib yur she‘rim!  
 Do‘stimning bag‘riga boshingni olib,  
 Raqibga tosh qahrim otib tur, she‘rim!  
 Hali sen necha uy, necha xonada  
 Meningsiz bir o‘zing mehmon bo‘lasan.  
 Ba‘zilar talqinlab turli ma‘noda  
 G‘ashingga tegadi, achchiq kulasan.

Shoir she‘rlarida o‘z hayoti aks etganini, ular qalbining siri, yurak dardi ekanini, Kavkaz tog‘lari, Dunay bo‘ylari, jang maydonlarida ajralmas hamroh bo‘lganligini ta‘kidlaydi. Nohaqlikka qarshi kurashda darddosh bo‘lib, xush kunlarga umid uyg‘otganini, doimo takabburlik, hasad, yolg‘ondan yiroq bo‘lganini uqtiradi. Ko‘ngil qushlari – she‘rlari halol tug‘ilib, halol yashaganini, o‘zidan keyin qoladigan ishlari, umrining guvohi ekanini uqdiradi.

So‘nggi satrlar  
 Bir kosa suv bo‘lgin chanqoq qo‘lida,  
 Chiroq bo‘l safarga chiqsa yo‘lida...  
 Har shoir baxtidir o‘zidan so‘ngra  
 Dillarga yo‘l olsa she‘ri elida!

tarzdagi da‘vat bilan yakunlanadi. Shoirning she‘rlariga ushbu murojaati kelgusi avlodlarga ham qaratilgandek tuyuladi.

Xullas o‘zbek she‘riyati “XX asrda o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi”[3,127]. Shuhrat asarlari ana shu taraqqiyotda muhim o‘rin tutdi. Bugungi kunda ham uning asarlari dolzarb mavzu va yuksak badiiyati bilan she‘riyatga tashna kitobxonlarning chanqog‘ini qondirmoqda. Kelgusida ham ko‘plab ijodkorlar uchun ta‘sir va ilhom manbai bo‘lishi shubhasizdir. Zero, “Ulug‘larning... nomini abadiylashtiradigan, o‘zini xalq mehriqamusharraf etadigani buyuk ishlari, yaratgan o‘lmas asarlaridir”[4,3]. Shuningdek, ular unib-o‘tib kelayotgan avlodlarni ma‘nan yuksaltirishga, axloqan tarbiyalashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Shu ma‘noda ushbu ijod namunalari mangulikka daxldordir. Shoirning “Erkam, meni unutmadingmi?” degan so‘rog‘i nafaqat sevimli yoriga, balki kelgusi avlodlarga ham qaratilgandek tuyuladi. Ana shu so‘roq esa bizga Shuhrat va uning ijodini o‘lmas hamda abadiyligini eslatib turadi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи, 2916.
2. Шухрат. Танланган асарлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. //www.ziyouz.com kutubxonasi
3. SabirdinovA. Jadid adabiyoti tarixi. Darslik. –Fargona: Classic, 2022.
4. Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. –Тошкент: Akademnashr, 2016.
5. Парандовский Я. Сўз кимёси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022.